

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

**2018 yil yanvar-mart** (dastlabki ma'lumot)



**Ish haqi.** 2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

- ta'limda 1213 ta muassasada 66,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 64,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 212076,1 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 39,2 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1237,3 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 16,5 %ga o'sdi;

- sanoatda 31 ta korxonada 13,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,1%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 100362,2 mlrd.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 18,6%ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3121,8 ming so'mni tashkil etib,2017 yilning mos davriga nisbatan 69,2 %ga o'sdi;

- sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 77 ta muassasada 23,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,8%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 67937,9 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 12,6%ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1150,0 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 17,3 %ga o'sdi;

- tashish va saqlashda 11ta korxonada 7,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 5,7%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 39882,0 mlrd.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 7,4%ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2068,9 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 9,8%ga o'sdi;

- moliyaviy va sug'urta faoliyatida 78 ta muassasada, 3,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,4 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 22380,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,1 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2257,2 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 23,2 %ga o'sdi;

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2018 yil yanvar-mart oylarida Qoraqalpogiston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 531,6 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan **23,9** % ga o'sishni ta'minladi.

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi**  
(2018 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)


	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, ming kishi	Ish haqi fondi, mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Respublika bo'yicha - jami</b>	<b>1877</b>	<b>137,6</b>	<b>540903,8</b>	<b>1531,6</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	31	13,9	100362,6	3121,8
Qurilish	11	2,3	12826,8	2161,7
Savdo	19	1,8	7104,6	1743,5
Tashish va saqlash	11	7,8	39882,0	2068,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	0,0	12,9	643,4
Axborot va aloqa	39	1,2	5773,8	1718,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	78	3,3	22380,4	2257,2
Ta'lim	1213	66,6	212076,1	1237,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	77	23,1	67937,9	1150,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	44	1,6	4754,5	1108,2
Boshqa faoliyat turlari	364	16,0	67792,3	1303,5

2018 yil yanvar-mart oylarida 2017 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati sanoatda 69,2%, qurilishda 49,8 %, savdoda 49,3% moliyaviy va sug'ruta faoliyatida 23,2 % kuzatildi.

2018 yil yanvar-mart oylarida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sanoatda 2 boraborga oshdi, moliyaviy va sug'urta faoliyatida 47,4 %ga, qurilishda 41,1%, tashish va saqlashda 35,1 %ga yuqorini tashkil etgan bo'lsa, aksincha yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 58,0 % ga, san'at, ko'ngil ochish va dam olishda 27,6 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 24,9 % ga respublikadan kamni tashkil etmoqda.




### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2018 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **1959,9** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **128,0** %), Qung'irot tumanida **1738,8** ming so'mni (**113,5** %) va Mo'ynoq tumanida **1564,6** ming so'mni (**102,2** %) tashkil etgan bo'lsa, Amudaryo tumanida **1136,0** ming so'mni (**74,2** %), Beruniy tumanida **1147,7** ming so'mni (**74,9** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2018 yil yanvar-mart, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-mart oylarida **426,5** ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi**  
**bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
 (yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik)

	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati, %
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1236,6</b>	<b>1531,6</b>	<b>123,9</b>
Nukus sh.	1487,7	1959,9	128,0
<i>tumonlar:</i>			
Amudaryo	968,3	1136,0	74,2
Beruniy	1004,7	1147,7	74,9
Qorao'zak	922,8	1147,9	74,9
Kegeyli	1061,2	1270,5	83,0
Qo'ng'iro't	1454,3	1738,8	113,5
Qanliko'l	1110,8	1334,6	87,1
Mo'ynoq	1215,6	1564,6	102,2
Nukus	1127,6	1305,6	85,2
Taxiatosh		1391,1	90,8
Taxtako'pir	1226,3	1442,3	94,2
To'rtko'l	1112,6	1282,5	83,7
Xo'jayli	1171,1	1308,8	85,5
Chimboy	1016,6	1208,1	78,9
Shumanay	978,2	1216,0	79,4
Ellikkala	1018,3	1206,0	78,7



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining Demografiya va mehnat statistikasi bolimi**

Nashr uchun mas'ul:

**G.Esboganova**  
(71) 230-82-18